



OILADAGI NIZOLARNI OLDINI OLISHDA IJTIMOIY ISHCHILARNING STRATEGIK ROLI: NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

**Nasriddinova Moxichexra
Shuxratovna**

*Alisher Navoiy nomidagi
O'zbek tili va adabiyoti universiteti
"Ijtimoiy ish" mutaxassisligi 1-kurs magistranti
e-mail: nasriddinovamoxichexra@gmail.com*

Annotatsiya

Mazkur maqolada oiladagi nizolarni oldini olish jarayonida ijtimoiy ishchining o'рни va roli nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaning ijtimoiy institut sifatidagi ahamiyati, oilaviy nizolarning kelib chiqish omillari hamda ularning oila barqarorligi va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri yoritilgan. Xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida ijtimoiy ishchining profilaktik, maslahat va mediatsiya faoliyati samaradorligi asoslab berilgan. Shuningdek, milliy qadriyatlar va ilg'or xorijiy tajribalarni uyg'unlashtirish orqali oilaviy nizolarni oldini olish tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari ijtimoiy ish amaliyotini rivojlantirish va oilaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: oila, oilaviy nizolar, ijtimoiy ish, ijtimoiy xizmat xodimi, profilaktika, mediatsiya, oilaviy barqarorlik, milliy qadriyatlar.

Abstract. This article analyzes the role and functions of social workers in the process of preventing family conflicts from both theoretical and practical perspectives. The study examines the significance of the family as a social institution, the factors contributing to the emergence of family conflicts, and their impact on family stability and social development. Based on the analysis of national and international scholarly sources, the effectiveness of social workers' preventive, counseling, and mediation activities is substantiated. Furthermore, the article develops scientific conclusions and practical recommendations aimed at improving the system of family conflict prevention through the integration of national values with advanced international practices. The research findings contribute to the development of social work practice and the strengthening of family stability.

Key words: family, family conflicts, social work, social service worker, prevention, mediation, family stability, national values.

Oila va oilaviy munosabatlar insoniyat jamiyati shakllanishining ilk bosqichlaridan boshlab doimo dolzarb ijtimoiy muammo sifatida qaralib kelgan. Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo'lib, unda shaxsning ijtimoiylashuvi,

qadriyatlar tizimining shakllanishi hamda ma'naviy-axloqiy kamoloti amalga oshadi. Sotsiologiya va ijtimoiy falsafa fanlarida oila shaxs va jamiyat o'rtasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'in sifatida talqin qilinadi [1]. Aynan oilaviy muhitda insonning ijtimoiy rollari, xulq-atvor me'yorlari va jamiyatga moslashuv ko'nikmalari shakllanadi.

Tarixiy jarayonlar shuni ko'rsatadiki, turli davrlar, mamlakatlar va madaniyatlarda oilaviy munosabatlar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy omillar ta'sirida turlicha shakllangan. Oila instituti jamiyat taraqqiyoti darajasi, ijtimoiy tuzum va madaniy an'analar bilan uzviy bog'liq holda rivojlanib kelgan bo'lib, uning ichki tuzilmasi va funksiyalari zamon talablariga mos ravishda o'zgarib borgan [2]. Shu bois oilaviy munosabatlar jamiyatdagi ijtimoiy o'zgarishlarning muhim indikatorlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston sharoitida oilaga bo'lgan munosabat mazmunan yangi bosqichga ko'tarildi. Oilani mustahkamlash, shaxsni har tomonlama rivojlantirishni aynan oilaviy muhitdan boshlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Oila institutini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy mexanizmlar tizimli ravishda takomillashtirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda mamlakatimizda qariyb 10 millionga yaqin oila mavjud bo'lib, ularning ijtimoiy holati, tarbiyaviy muhiti va oilaviy munosabatlar tizimi turli darajada namoyon bo'lmoqda [3]. Mazkur holat oilaviy nizolarni oldini olish va oilaviy barqarorlikni ta'minlashda ijtimoiy ishchilarning kasbiy faoliyatini yana-da takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlardagi muammolar, xususan, oiladagi nizolar va ajrimlar masalasi tobora dolzarb ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Oilaviy nizolar faqatgina er-xotin o'rtasidagi munosabatlar bilan cheklanib qolmay, balki bolalarning ruhiy holati, ijtimoiy moslashuvi va tarbiyaviy rivojiga, shuningdek jamiyatdagi umumiy ijtimoiy barqarorlikka ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sotsiologik va psixologik tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, oiladagi doimiy nizoli muhit bolalarda stress, xavotir, ijtimoiy ishonchsizlik va xulq-atvor muammolarining shakllanishiga olib kelishi mumkin [4].

Empirik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, oilaviy nizolarning yuzaga kelishiga bir qator o'zaro bog'liq omillar sabab bo'lmoqda. Jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, shaxslararo muloqot madaniyatining yetishmasligi, er-xotin o'rtasidagi psixologik mos kelmaslik, qadriyatlar tizimidagi transformatsiyalar hamda tarbiyaviy mas'uliyatning susayishi oilaviy ziddiyatlarning asosiy manbalari sifatida qayd etiladi [5]. Ushbu omillar oilaning ijtimoiy funksiyalarini to'laqonli bajarishiga to'sqinlik qilib, nizolarni chuqurlashtiradi.

Xorijiy tajribaga murojaat qiladigan bo'lsak, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida oilaviy ajrimlar darajasining oshishi individualizmning kuchayishi, shaxsiy erkinlik va o'zini-o'zi ro'yobga chiqarish qadriyatlarining ustuvorlik kasb etishi, shuningdek nikoh institutiga bo'lgan an'anaviy qarashlarning susayishi bilan izohlanadi [6]. Ushbu jamiyatlarda nikoh ko'proq shaxsiy tanlov va hissiy qoniqish bilan bog'liq institut sifatida talqin qilinadi.

O'zbekiston sharoitida esa oilaviy nizolarning kelib chiqishi ko'proq ijtimoiy moslashuv jarayonlari, iqtisodiy barqarorlik, oilaviy mas'uliyat darajasi hamda milliy

va ma'naviy qadriyatlarning amaliy hayotdagi namoyon bo'lishi bilan bog'liq omillar asosida yuzaga kelmoqda. An'anaviy oilaviy qadriyatlarning saqlanib qolishi bilan bir qatorda, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oilaviy munosabatlarda yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. By oca oilaviy nizolarni oldini olishda ijtimoiy ishchilarning kasbiy va preventiv faoliyatini kuchaytirish zaruratini yanada oshirmoqda.

Mazkur sharoitda oiladagi nizolarni oldini olish jarayonida ijtimoiy ishchining o'rni va roli alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ishchi oilaviy muammolarni erta aniqlash, nizolarning oldini olish va ularning keskinlashuviga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. Ijtimoiy ish amaliyotida oilaga ko'rsatiladigan ijtimoiy, psixologik va maslahat yordami nizolarning chuqurlashib ketishining oldini olish, oilaviy resurslarni faollashtirish va barqaror munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi [7].

Ijtimoiy ishchilarning oila bilan ishlashdagi asosiy ustunligi shundaki, ular oilaviy muammolarni faqat individual darajada emas, balki kengroq ijtimoiy kontekstda – ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qiladi. Shu jihatdan ijtimoiy ishchining faoliyati oilaviy nizolarni bartaraf etishdan ko'ra, ularni oldini olishga qaratilgan profilaktik yondashuvga asoslanadi (prevention-oriented approach) [8].

Bugungi kunda ijtimoiy ish sohasining nazariy va amaliy jihatlarini takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotgan bir sharoitda, oilaviy nizolar profilaktikasi masalasi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Zamonaviy ilmiy izlanishlar doirasida oilaviy nizolarni oldini olish bilan bog'liq quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda:

- oiladagi nizolar tushunchasining ijtimoiy ish va psixologiya, sotsiologiya fanlari nuqtai nazaridan mazmun-mohiyatini aniqlash;
- oilaviy nizolarning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik omillarni tizimli tahlil qilish;
- oilaviy nizolarning oila barqarorligi, bolalar tarbiyasi va jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatadigan ijtimoiy oqibatlarini o'rganish;
- oiladagi nizolarni oldini olish jarayonida ijtimoiy ishchining o'rni, vakolatlari va asosiy funksiyalarini aniqlash;
- ijtimoiy ishchining profilaktik, maslahat va mediatsiya faoliyatining samaradorligini ilmiy asoslash;
- ijtimoiy ishchining oilalar bilan ishlashdagi kasbiy faoliyatini takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mazkur masalalarning ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etilishi oilaviy nizolarni oldini olish tizimini takomillashtirish, shuningdek ijtimoiy ish amaliyoti samaradorligini oshirish uchun nazariy-metodologik asos yaratadi.

Hozirgi kunda O'zbekiston sharoitida oiladagi nizolarni oldini olishga qaratilgan ijtimoiy ish faoliyati xalqimizning boy milliy va ma'naviy qadriyatlari, urf-odatlarini hamda an'analariga tayangan holda amalga oshirilmoqda. Mazkur yondashuv oilani ijtimoiy institut sifatida mustahkamlash, avlodlar o'rtasida uzviylikni saqlash va oilaviy munosabatlarda ijtimoiy mas'uliyatni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga,

globalashuv va ijtimoiy transformatsiya sharoitida oilaviy munosabatlar mazmunining o'zgarib borayotgani ijtimoiy ish amaliyotida zamonaviy, ilmiy asoslangan va kompleks yondashuvlarni qo'llash zaruratini yuzaga keltirmoqda [9].

Ilg'or xorijiy tajribalarni milliy ijtimoiy ish tizimiga moslashtirish, xususan oilaviy mediatsiya, konsultativ xizmatlar va profilaktik dasturlarni joriy etish ijtimoiy ishchining oilalar bilan ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin. Bunda ijtimoiy ishchi nafaqat muammoni hal etuvchi mutaxassis, balki oilaviy munosabatlarda vositachi, ijtimoiy resurslarni safarbar etuvchi va barqarorlikni ta'minlovchi professional subyekt sifatida namoyon bo'ladi [10]. Аунан шу касбий рол ижтимоий ишчининг профилактик фаолятини кучайтириш ва оилавий низоларнинг эрта босқичда олдини олиш имконини беради.

Xulosa qilib aytganda, oiladagi nizolarni oldini olishda ijtimoiy ishchining rolini kuchaytirish, uning kasbiy faoliyatini zamonaviy nazariy yondashuvlar va ilg'or amaliy tajribalar asosida takomillashtirish oilaning mustahkamligi, bolalar manfaatlarini himoya qilish hamda jamiyatning ijtimoiy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy ishchining oilalar bilan ishlashdagi faoliyatini institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash va ilmiy asoslash oilaviy nizolar profilaktikasining samarali tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Адабиётлар рўйхати (References)

1. Émile Durkheim. The Division of Labour in Society. New York: Free Press, 1893. Talcott Parsons. The Social System. Glencoe, IL: The Free Press, 1955.
2. Giddens. Sociology. Cambridge: Polity Press, 2006
3. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi. Aholi va oilalar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar. – Toshkent, rasmiy statistik byulletenlar va ochiq ma'lumotlar bazasi, 2023–2024-yy.
4. Amato, P. R. The consequences of divorce for adults and children. Journal of Marriage and Family, 62 (4), 2000.
5. Turner, F. J. Social Work Treatment: Interlocking Theoretical Approaches. New York: Oxford University Press, 2015.
6. Giddens, A. The Transformation of Intimacy: Sexuality, Love and Eroticism in Modern Societies. Cambridge: Polity Press, 1992.
7. Payne, M. Modern Social Work Theory. London: Palgrave Macmillan, 2014.
8. Healy, K. Social Work Theories in Context: Creating Frameworks for Practice. London: Palgrave Macmillan, 2012.
9. Midgley, J. Social Development: The Developmental Perspective in Social Welfare. London: Sage Publications, 2014.